

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 7 | **2026**
ISSUE 1

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 7, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 7, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари
доктори, (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АҚМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,
Академии искусств Узбекистана, доктор
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

АНТонио Алонсо Маркос

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор филологических наук (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при
Академии наук Республики Узбекистан, доктор
философских наук (PhD), доцент

ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философии (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of
Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences
(Uzbekistan)

AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philosophical Sciences, Docent

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Norov Toji Omonovich ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI.....	7
2. Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кизи, Шамсиева Гульшода Аслиддин кизи АНАЛИЗ КОНТЕКСТНО-ЗАВИСИМЫХ ЕДИНИЦ В МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ PARATRANSLATOR.UZ).....	14
3. Tangirov Nizom Abduraxmonovich, Kadirova Guzal Nuritdinovna OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	21
4. Амиров Азамат Одил угли СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА.....	26
5. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li SOVET ORIYENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI...33	33
6. Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li PRINCIPLES FOR DETERMINING INTERLEVEL GRAMMATICAL MINIMUMS IN TEACHING UZBEK TO ENGLISH SPEAKERS.....	41
7. Xo‘jaqulova Munira Islom qizi FALSAFA VA DIN INSON MA’NAVIYATINING ASOSI.....	48
8. Bekchanova Manzura Shuxratovna IGNATS GOLDZHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI.....	60
9. Archabayeva Nargiza Nasimovna LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA PRAGMATIK IFODALANISHI.....	66

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Хо'жақуллова Мунира Ислон қизи**Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma
tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti

E-mail: munira21ziza@mail.ru

FALSAFA VA DIN INSON MA'NAVIYATINING ASOSI<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21007845>**ANNOTATSIYA**

O'rta asr arab-musulmon falsafasida insonning o'rni, insonlarning ma'naviy va moddiy farovonligi, maqsadi, baxt-saodat nima va unga yetishishning zarurligi, komil rahbar, adolat, axloq, boshqaruv, donolikka intilish, borliq, bilish, aql, ruh (jon), mavjudotlarning bir-biriga bo'ysunishi, tobeligi, hukmronligi, zarurati, qadr-qimmat, azaliy va abadiyligi, inson mohiyati, haqiqatga erishish kabi masalalar talqin qilingan. Maqolada o'rta asr Sharq va antik davr G'arb faylasuflarining qarashlarining qiyosiy tahlili va sharhlari aks ettirilgan. Falsafa va din bir-birini rad etuvchi emas aksincha bir-birini todirib, taqozo etuvchi ilm manbai ekanligi izohlangan. Teosofiyaga ko'ra, borliqning paydo bo'lishi va mavjudligi, hayot va uning mohiyati, insonning vazifasi hamda mohiyati, inson o'z mohiyatini anglashdagi zaruriyati sharhlab, tushuntirilgan. Haqiqatga erishish dalil va isbot asosida, turli qarama-qarshi qarashlarning birlashuvi natijasida erishish mumkinligi qayd etilgan. Abu Nasr Forobiy gnoseologiyasida inson bilishi mumkin bo'lgan bilimlar nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi. "Ikkinchi muallim" baxtni har kim turlicha tushunishini ta'kidlagan. Baxtga hamma intilishi va o'zgalarni baxtli qilishga harakat qilishi haqidagi olimning qarashlaridan u jamiyatni fozillashtirishga intilganligini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Borliq, mashshaiyun, inson, aql, baxt, mohiyat, vujudi vojib, vujudi mumkin, "Birinchi mohiyat".

Хўжақуллова Мунира Ислон қизиБелорусско-Узбекский совместный межотраслевой институт
прикладных технических квалификаций, г. Ташкент

E-mail: munira21ziza@mail.ru

ФИЛОСОФИЯ И РЕЛИГИЯ - ОСНОВА ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕКА**АННОТАЦИЯ**

Средневековая арабо-мусульманская философия интерпретировала такие вопросы, как место человека, духовное и материальное благополучие людей, их предназначение, что такое счастье и необходимость его достижения, идеальный лидер, справедливость, мораль, управление, стремление к мудрости, существование, знание, разум, дух (душа), подчинение существ друг другу, подчинение, господство, необходимость, достоинство, предвечный и вечный, сущность человека и достижение истины. В статье представлен сравнительный анализ и комментарий к взглядам средневековых восточных философов и философов античного периода западного мира. Объясняется, что философия и религия не являются отрицающими

друг друга, а скорее взаимодополняющими и необходимыми источниками знания. Согласно теософии, интерпретируются и объясняется возникновение и существование бытия, жизнь и её сущность, функция и сущность человека, необходимость для человека в понимании собственной сущности. Отмечается, что достижение истины может быть достигнуто на основе доказательств и подтверждений, в результате сочетания различных противоположных взглядов. В гносеологии Абу Насра аль-Фараби знание, которое может познать человек, делится на теоретическую и практическую. Как подчеркивал «Второй Учитель», что каждый по-своему понимает значимость счастья. Из взглядов учёного видно, что о стремление каждого человека к счастью и его усилий по обеспечению счастья других людей, он стремился улучшить общество и сделать его добродетельным.

Ключевые слова: Бытие, перипатетизм, человек, разум, счастье, сущность, существование обязательное, существование возможное, «Первая Сущность».

Munira Islomovna Khojaqulova

Belarus-Uzbekistan Joint Intersectoral Institute of
Applied Technical Qualifications, Tashkent, Uzbekistan
E-mail: munira21ziza@mail.ru

PHILOSOPHY AND RELIGION AS THE FOUNDATION OF HUMAN SPIRITUALITY

ANNATATION

Medieval Arab-Muslim philosophy addressed numerous issues: humanity's place in the cosmos, spiritual and material well-being, purpose, happiness, just leadership, ethics, governance, wisdom, existence, knowledge, intellect, the soul, causality, necessity, dignity, eternity, and truth. This article offers a comparative analysis of medieval Eastern and ancient Western philosophers, arguing that philosophy and religion are complementary rather than exclusive. Drawing on theosophy, it explains being, life, and the essence of man as interconnected. Truth, the article notes, is attained through evidence and the synthesis of opposing views. In Al-Farabi's epistemology, knowledge divides into theoretical and practical parts. As the "Second Teacher" emphasized, people define happiness differently yet universally strive for it-and seek to improve society by promoting others' happiness.

Keywords: Medieval Arab-Muslim philosophy, Al-Farabi, Peripatetics (mashshā'ūn), necessary existence, possible existence, First essence, happiness, human essence, intellect, soul, theoretical knowledge, practical knowledge, theosophy, comparative philosophy

Kirish va mavzuning olzarbligi. Jahonda inson muammosi asrlar davomida o'rganilgan, yechimini topishga harakat qilingan, lekin hozirga qadar yechimini topmagan muammolardandir. Bugungi kunda iqtisodiy, texnik yuksalishga intilish, ijtimoiy farovonlikka erishish maqsadida yuz berayotgan global raqobat muhiti, jahon urushi xavfi va tinchlik masalalari, ekologik muammolar va sun'iy intellektning yaratilishi ijtimoiy taraqqiyotda inson omilining o'rni va rolini yangi paradigmalar asosida tadqiq qilishni taqazo etmoqda. Sharq mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Forobiyning ilmiy-falsafiy merosida ilgari surilgan insonning ijtimoiy va ilohiy mohiyatini anglashga qaratilgan, ma'rifatga asoslangan ma'naviy olamini yaratish haqidagi ta'limotlarini o'rganish insoniyat oldida turgan ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy dilemmalarning yechimini aniqlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Usullar. Maqolada ilmiy bilishning tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, vorisiylik, ilmiy xolislik kabi tamoyillar, analiz va sintez, hamda taqqoslash va umumlashtirish usullaridan, induksiya, deduksiya va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Abu Nasr Forobiy islom falsafasining yirik vakillaridan biri. U o'z zamondoshlari kabi "Inson qanday mavjudot?", "aql nima va uning turlari?", "Jismoniy va ruhiy borlig'iga ko'ra u qanday tabiatga ega?", "Nimasi bilan u boshqa mavjudotlardan mukammal

mavjudot hisoblanadi?” degan savollarga javob izlagan. Forobiy falsafadan - hikmat ilmidan bu savollarning javoblarini topgan, ularni mantiqiy dalillagan. Bu masalaga faylasuf Alloh tomonidan yaratilgan mavjudotlar ichida eng sharaflisi, aqligi va yangi (so‘nggi)si insondir degan nuqtai-nazarni asoslagan.

Aynan islom dini islom falsafasining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan omil edi. Sharq peripatetiklari o‘zlarining bilish va borliqqa oid qarashlarini islom dini bilan ziynatladilar. Bunda ular falsafa va ilm-fanni, olamning mavjudligini nafaqat ilmiy asosda, balki diniy qarash bilan ham uyg‘unlashtirilgan holda tushuntirishga harakat qildilar. IX – X asrlarda qomusiy olimlar, sharhlovchilar, mutaxassis tarjimonlar yetishib chiqdilar. Ular turli sohalar yuzasidan asar va risolalar yozishlari natijasida ilm-fan ravnaq topdi.

Yangi afltuncha tamoyillar Abu Yusuf Yaqub ibn Is‘hoq al-Kindiy, Fahriddin Roziy, Zakariyo ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinolarning falsafiy qarashlarida namoyon bo‘lgan. Kindiy tafakkurida ko‘proq Arastu unsurlari ustunlik qilsa, Abu Bakr Zakariyo Roziyda Aflotun qarashlari kuchliroq edi. Yangi afltuncha aqidalarning munazzam birinchi sharhi arab tilida eng yirik islom faylasufi va mantiqshunosi Muhammad Ibn Muhammad Ibn Tarxon Forobiy asarlarida berilgan. O‘rta asrlarda lotin tilida ijod qilganlar Forobiyni Abu Nasr deb ataganlar.

O‘rta asrlardagi falsafiy tafakkur tarixini islom tarixidan ajratib bo‘lmaydi. Diniy ong va falsafa murakkab, qarama-qarshi va shu bilan birga fan taraqqiyoti uchun go‘zal davrni aks ettirdi va ko‘pchilik bu davrni “Oltin davr”, deb nomladi. Bu davrda ayniqsa mashshaiyun (peripatetizm) ta‘limoti rivojlandi. Avval Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sinolar Arastu va Aflotunning shogirdlari hisoblanashgan bo‘lsa, keyinchalik Sharq mashshaiyunlari deb nomlandilar.

Sharq mashshaiyunchilik maktabining asoschisi, musulmon mutafakkirlari orasida birinchi bo‘lib, Arastu g‘oyalarini bayon qilib bergan al-Kindiy hisoblanadi. Biroq bu maktabning fundamental tamoyillarini tizimlangan ko‘rinishda ishlab chiqqan Forobiyni haqiqiy keng qamrovli faylasuf, deb hisoblash lozim.

Olimning asosiy maqsadi falsafani haqiqiy ilmlardan biri ekanligini isbotlash bo‘lgan bo‘lsa kerak. Chunki, agar bu ikki faylasufning fikrlari, qarashlari bir-biriga zid bo‘lsa, mantiqning nozidlik qonuniga ko‘ra, bu qarashlardan bittasi botil qarash bo‘ladi, negaki, haqiqat bitta bo‘ladi. Odam ikkilanib qolmasligi uchun xulosa yoki natija ikki xil bo‘lishi mumkin emas. Falsafa har bir narsaning mohiyatiga yetish uchun u shu narsani qismlarga bo‘lib, o‘rganib, tahlil qiladi. Bunda mantiqdagi deduktiv xulosa chiqarish usulidan foydalaniladi. Chunki, aql isbot talab qiladi. Aflotunning nazdida narigi dunyoni o‘ylaydigan odam bu dunyodagi dunyoviylikdan yuz o‘giradi deya, shu aqidaga amal qilgan bo‘lsa, Arastuning hayotida biz buning aksini ko‘rishimiz mumkin, deydi Forobiy. U shar‘iy dalillar asosida Aflotun va Arastuning qarashlarini shariatga yaqinlashtirishga harakat qilgan.

Qur‘oni Karim va mutakallimlarning ta‘limotiga ko‘ra, Xudo hech qanday zaruriyat bilan bog‘lanmagan va hech narsaga ehtiyoj sezmasdan, o‘z xohish va irodasidan kelib chiqib dunyoni yaratgan. Forobiyning ontologik qarashlari axloqiy, siyosiy, antropologik masalalar va teologiyani ham o‘z ichiga oladi. Ontologiya Forobiy falsafasining asosi hisoblanadi, chunki uning bu borada bahs-munozaraga sabab bo‘luvchi fikrlari bor. Forobiy falsafasiga muvofiq, dunyoning paydo bo‘lishi o‘zaro sabab-oqibat munosabatida bo‘lgan, bir necha bosqichni tashkil etuvchi tadrijiy jarayondan iborat. Falsafani o‘rganishdan oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifa bu yagona Oliy Haqiqatni bilishdir. Birinchi Mohiyat barcha narsalarning mavjudligining va harakatining sababchisi hamda bu olamni tartibga solib turuvchidir.

Islom falsafasiga ko‘ra, Xudoning mavjudligini hech kim inkor qila olmasdi. Biroq, Xudoni falsafiy tushunish va bilish xalqning sodda tilidan ko‘ra falsafiy va mantiqiy metodlarda farqlanib turardi.

U كتاب الجمع بين رأی الحكيم افلاطون الالاهى و ارسطوطاليس [Kitab-ul-jam‘i bayn aro‘yay al-hakimayn Aflotun al-ilahiy va Aristutalis] (“Ikki hakim– ilohiy Aflotun va Arastu qarashlarining o‘xshash jihatlari jam qilingan kitob”)ining muqaddimasida bunday deydi: “Men shunga guvoh bo‘ldimki, olamning azaliyligi yoki xodisligi (keyin paydo bo‘lganligi) haqida bahs-munozaralar bo‘lmoqda. Ular Aflotun va Arastuning Birinchi Yaratuvchi, ruh va aql, Birinchi Sababdan amallar uchun beriladigan ezgulik va yovuzlik, siyosat, axloq, mantiq masalalari yuzasidan bahslashib, bunga

chek qo‘ymayaptilar. Bahs-munozaralar yakun topsin, nizolar tugasin, deb bu risolani yozishga kirishdim”. Falsafaning masalasiga oydinlik kiritish nihoyatda ulug‘ maqsaddir: “Falsafa – bu mavjudotni bilmoqlikdir, zero u bor narsadir”-deydi Forobiy.

Aflotun va Arastu olamning yagona manzarasini yaratishga uringanlar, ya’ni har ikki faylasufning qarashlari bir-birini to‘ldirishdan iborat bo‘lgan. Shundan kelib chiqib Forobiy ikki buyuk olimning qarashlarining maqsadini bir hil deb hisoblagan.

Barcha millatlarning ba’zi arboblarning aqidasi ko‘ra, modda (materiya) qadim (abadiy)dir. Hatto yahudiy va majusiy olimlari ham ochiqdan-ochiq buni tan olishadi. Forobiy bu o‘rinda masihiylar va musulmonlarning yetuk olimlarining fikrlarini keltirib o‘tgan. Mana shunday fikrlari uchun u hanbaliylar va boshqa mutaassiblarning tanqidlariga duchor bo‘lgan.

Aflotun va Arastu qarashlarini Forobiychalik hech kim yuqori darajada sharhlay olmagan. Bu narsa Forobiyning, ya’ni musulmon olimining buyukligidan darakdir. كتاب الجمع بين رأيي الحكيم افلاطون كتاب الجمع بين رأيي الحكيم افلاطون [Kitab-ul-jam‘i bayna ro‘yay al-hakimayn Aflatun al-ilahiy va Arastutalis] (“Ikki hakim – ilohiy Aflotun va Arastu qarashlarining o‘xshash jihatlari jam qilingan kitob”)ining “Olamning azaliyligi va abadiyligi” bo‘limida olamning azaliyligi va abadiyligi muammosi, uning yaratilganligining sababchisi bor yoki yo‘qligi, Arastu borliqni azaliy, Aflotun esa yaratilgan degan fikrlarining tahlili keltirilgan. Forobiy: “Allohga hamdlar bo‘lsin, olam zamondan xoli bo‘lgan Olamning harakatidan vujudga kelgan turtki vositasida Xoliq (Yaratuvchi)ning yaratilmishi hisoblanadi”-deydi. Arastu o‘zining fikrlarini tafakkur – mantiq qonunlari asosida, empirik faoliyat vositasida xulosalar chiqarib, “Fizika”, “Metafizika”, “Topika”, “Teologiya” kitoblarida ontologiya masalalarini ifodalaydi [1].

“Teologiya” asarini o‘qigan Forobiy shunday to‘xtamga keladi: “Bu olamning yaratuvchisi bor va u hozir ham mavjud”. “Allohga hamdlar bo‘lsin, birlamchi javharni Yaratuvchi uni hech narsadan yaratdi. Yaratuvchining istagi bilan u moddiylikka, so‘ng tartibga ega bo‘ldi. ...Yaratuvchi Birinchi Sabab bo‘lib, u na tug‘ilmagan na harakatga keltirilmagan. ...Olamning moddiy va ruhiy borliqlarini, yaratilgan jamiki narsalarning hammasining Ijodkoridir, U ham Harakatga keltiruvchi Sabab, ham Birinchi Haqiqat, va bu Yaratuvchi o‘zining ilohiy kuchi bilan olamni vujudga keltirdi”-deydi olim o‘zining “Ikki hakim – ilohiy Aflotun va Arastu qarashlarining o‘xshash jihatlari jam qilingan kitob”ida. Arastu ham “Metafizika”sida Birinchi Harakatlantiruvchining zaruratini aytadi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy olamning paydo bo‘lishi va umuman borliqqa oid ilmiy mushohadalarni Aflotun Arastuchalik izchil mulohaza qilmagan deydi. Olamning paydo bo‘lishi haqida aytilgan fikrlarning ko‘pi moddiylik bilan bog‘langan, ya’ni biri suvdan, boshqasi olovdan va shu kabi aqidalardan iborat.

Birinchi sabab – o‘zining barcha harakatlarida eng qudratli, eng dono va eng bilguvchi mukammal zotdir, uning barcha harakatlarida hech qanday nuqson yo‘q. Unda tabiiy narsalarda bo‘lgan na kamchilik, na ojizlik, na falokat, na bemorlik bor. Bu xususiyatlarning barchasi moddiy zaruriyatdan kelib chiqadi va bunda moddaning layoqatsizligi mukammal tartibda ifodalangan.

Yaratuvchi – olamni boshqaradi, uning nigohidan hech bir narsa tushib qolmaydi, U biron-bir borliqni o‘z e’tiboridan chetda qoldirmaydi, har bir narsa va hatto har bir zarra o‘z joyida. Olamning nizomida biror zulm, bir-biriga halal beradigan narsaning o‘zi yo‘q. Olamning nizomi, koinotning aylanib turishida biror kamchilik, noaniqlikning o‘zi yo‘q. Mavjud tabiat ham g‘oyat mukammal qilib yaratilgan. Forobiyning bu kabi tabiatning odilona tartiblari haqidagi fikrlari كتاب الجمع بين رأيي الحكيم افلاطون والارسطوطاليس (“Ikki hakim – ilohiy Aflotun va Arastu qarashlarining o‘xshash jihatlari jam qilingan kitob”) va كتاب في مبادئ آراء اهل المدينة الفاضلة (“Fozil odamlar shahri ahlining qarashlari haqida kitob”) asarlarida aytilgan.

Forobiy: “Allohga hamdlar bo‘lsin! Yaratuvchi o‘zining betakrorligi va mohiyati jihatidan barcha narsalarga qarshi chiqa oladi... unga na mos keladigan na teng keladigan mohiyatning o‘zi yo‘qdir. Hamma narsalarga beriladigan tushunchalar bilan uni ta’riflab bo‘lmaydi. Biz, Uning borlig‘i bizning borlig‘imizdan, ya’ni Undan quyi turuvchidan farq qilishligini tushunmaymiz”-deydi.

Shuningdek, uning mohiyati abadiy ekan va Unga o‘zgarishning hamda qayta shakllanishning zarurati yo‘q ekan, demak, U va Uning izmidagi barcha mavjudotlar abadiydir, ya’ni boshqa shaklga o‘tmaydi ham, o‘zgarmaydi ham...” . Abu Nasr Forobiyning bu fikridan olam abadiy degan xulosa

kelib chiqadi. Forobiydan keyin Abu Ali ibn Sino ham shu fikrga qo‘shilgan. Abu Nasr Forobiyning qarashlarini Abu Ali ibn Sino qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, ontologiya masalasidagi fikrlarini keyinchalik Imom Abu Homid G‘azzoliy “Ikkinchi muallim” va “Shayh ur-Rais”ni tanqid qiladi. Keyinchalik esa, Averoes “Hujjat ul-Islom”ga raddiya bildiradi. Fikrimizcha, ikki buyuk mutafakkir olamning abadiyligini Yaratuvchining abadiyligidan kelib chiqib shu qarorga kelishgan. Bizningcha abadiylik tushunchasi narigi dunyodagi abadiy hayot xususida ham bo‘lishi mumkin.

Forobiyning ta’kidlashicha, dunyo o‘zining mohiyatiga ega. Birinchi Mohiyat mutlaq mukammal abadiy bo‘lgan borliqdir. Birinchi Mohiyat boshqa barcha narsalarning sababchisi hisoblanadi.

Xudoni bilish to‘g‘risidagi ilm – ilohiyotdir. Ilohiyot ilmining kelib chiqish sabablari haqida Abu Nasr “Ixso-al-ulum” asarida shunday deydi: “... Tabiat haqidagi ilm kelib chiqqanidan so‘ng, bu substansiyaning ijodchisi bormi yoki uni ijodchisiz ham tasavvur etish mumkinmi, u abadiymi degan masalalarni... o‘rganish Xudoni bilishning hamda Xudo tomonidan substansiya va aksidensiyaning yaratilganligiga iqrar bo‘lishning sababi bo‘ladi. Bundan Xudo mavjudligiga olib keluvchi va uni bilishga undovchi fikr kelib chiqadi, chunki u bordir. Bu ilm tabiatdan yuqori turgan ilm – metafizika yoki ilohiyot ilmi, deb yuritiladi. Bu ilm barcha ilmlarning yakuni va oxiridir, undan so‘ng biror narsani tekshirishning zaruriyati qolmaydi, bu har qanday tadqiqotning maqsadidirki, bunday tadqiqot osoyishtalik holatiga keladi.

Yuqoridagi olimning fikri ateistlar uchun yaxshi argumentlardan biridir. Forobiy aytadi: “Uning borlig‘i yagonadir. Faqat unga monand zotgina bunday borliqqa ega bo‘lishi mumkin, u yagonadir. Bundan tashqari u mohiyatan yaxlitdir (bo‘linmasdir)”. Forobiyning bu mulohazasida Qur‘onning birinchi surasida bayon qilingan islom dinining asosiy g‘oyasi aks etgan. Mutafakkir yunon falsafasi uchun dolzarb mavzu sifatida qaralgan dunyoning yo‘qlikdan yaralganligining muammosi o‘rniga, islom ilohiyotchiligidagi yakka xudolik, Alloh dunyoni yaratganligini va u tengsiz ekanligini isbotlashga harakat qildi. Shuningdek, u o‘z she‘rida Birinchi Sababga nisbatan shunday yuzlanadi:

Ey borliq narsalar sababchisi zot,
Bari fayz-nuringdan bo‘lgandi bunyod.
Qat-qat osmon, o‘rtadadir Yer, dengiz
Ularga egasan, markazi obod.
Panoh istab keldim, gunohkoringman,
Kechir ko‘p xatoyim, nuqsonim bod-


bod.

Fayzing aylasin rabbim, tabiat –
Unsurlar kiridan unsurim ozod .

“Fozil shahar ahlining qarashlari haqida kitob”ida (كتاب في مبادئ آراء اهل المدينة) mutafakkir avval Allohni madh etgan so‘ng borliq, inson, jamiyat va bugungi kundagi bir qancha jabhalar yuzasidan fikr bildirgan.

Forobiy ta’limotida ontologiya – “borliqning birlamchiligi haqidagi ta’limot” butun borliqni birdek o‘rganuvchi “ilohiy ilm” sifatida belgilangan metafizika alohida o‘rin tutadi. Mutafakkir: “Xudoni bilish bu ilohiy ilmdir. Hammasini bilguvchi Birinchi aql butun borliqning boshlanishini biladi”- deydi.

Olim har qanday borliqning birinchi sababi va birinchi mohiyatini metafizika fani o‘rganadi, deydi. Inson aqli mavjudot



bo‘lganligi uchun Xudo tomonidan olamning ontologik ketma-ketlikda yaratilishi, umumiylikdan yagonalikka qarab rivojlanishini anglash qobiliyatiga ega deb hisoblagan. “Olamning yaratilishidan uning yaratuvchisigacha, voqeadan mohiyatgacha, yagonalik va qismanlikdan universallikkacha bo‘lishini ko‘rsatishga intilganlar. Ana shuning uchun narsalarni aqliy anglash vositasi bo‘lgan mantiqdan, tajribadan, tabiat va odam haqidagi maxsus fanlar hamda empirik bilimlardan individual anglash boshlanadi”. Mutafakkirning fikricha, metafizika olamning butun tuzilishini ko‘rsata oladi. Falsafa esa, borliqning paydo bo‘lishi va mavjudligini, hayot va uning mohiyatini, yashashdan maqsad, insonning vazifasini insonga sharhlab, tushuntirib, anglab yetishi uchun xizmat qiladi. Haqiqatga yetishish dalil va isbot asosida, turli qarama-qarshi qarashlarning birlashuvi natijasida erishish mumkin.

O‘rta asr olimlari va islom ta‘limotining yetakchilari butun borliq tuzilishini Yaratuvchi bilan tasavvur etganlar. Bunda Alloh – Yaratuvchi, odam – maxluq. Forobiy olamni emanatsiya (sabab va oqibat nisbatida bog‘langan bosqichlar) asosida vujudga kelgan deydi.

“...Birinchi Sababning boshqa mavjudotlarga bo‘lgan nisbati fozil shaharning o‘zining boshqa juz‘lariga bo‘lgan nisbati kabidir. Chunki, moddadan iborat yaratilgan narsalar Birinchiga yaqin bo‘ladi. Uning pastida samoviy jismlar bor. Samoviy jismlarning pastida moddiy jismlar bor. Bularning barchasi birinchi sababga taqlid qiladi”[2].

Alloh o‘zini namoyon qilishni xohlagandek, his qiluvchi – inson ham uni ko‘rishga va uning boshqaruviga muhtojlik sezadi. Nafaqat inson, balki barcha mavjudotlar Birinchi Sababning ko‘rsatmasi va nazoratiga muhtojdirlar. Forobiy vujudni o‘z tabiati imkoniyatlariga ko‘ra, ikki qismga bo‘ladi, Birinchi qismga – mohiyatdan ularning mavjudligi zaruriy ravishda kelib chiqmaydigan narsa taaluqli, ya’ni “Vujudi vojib”.

VUJUDI VOJIB	VUJUDI MUMKIN
Bo‘lishi shart, mavjudligi zarur, usiz hayot yo‘q, usiz hech narsa mavjud bo‘lmaydi. Mavjudligi boshqa narsaga bog‘liq emas.	Mavjudligi hamma vaqt boshqa bir mohiyatdan kelib chiqadi, uning mavjudligi uchun boshqa mohiyatning mavjud bo‘lishining zaruriyligi talab etiladi, ya’ni “Vujudi mumkin” mavjud bo‘lishi uchun biror sababga muhtoj, sababsiz vujudga kelmaydi. Alloh yaratgan mohiyatlar. Bularning borliqda mavjud bo‘lishligining u qadar katta ahamiyati yoki zaruriyati yo‘q. “Vujudi mumkin” bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham hayot va borliq mavjud bo‘laveradi, bular o‘tkinchi narsalardir.
ALLOH – Birinchi Sabab (hamma narsalarning asoschisi va boshi). Alloh, ya’ni usiz hech narsa mavjud bo‘lolmaydi, u zarurdir.	Allohdan kelib chiqqan barcha narsalar: odam, hayvon, o‘simlik, sayyora, yulduzlar, unsurlar,...

Demak, olim Xudo mavjud va uning mavjudligi zaruratdir degan xulosani beradi.

Aql egasi bo‘lgan insonda nimagadir ishonish, suyanish, iltijo qilish tabiatida mavjud. Bularning barchasi dinga taaluqli. Demak, aql egasi e‘tiqodga ehtiyoj sezadi.

Ma‘lumki, islom dini butparastlikka qarshi kurashib vujudga kelgan din hisoblanadi. Islom keng hududlarga tarqala boshlagach, islomda turli yuzaki diniy amallarni, marosimlarni bajarishda ham ixtilof kelib chiqqa boshladi. Mana shunday vaziyatda musulmon ahlini zohirga emas, botinga nazar tashlashga undab tasavvuf ta‘limoti shakllandi. Muhimi inson qalbi Haqqa to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur bo‘ldi. Natijada islom dini oldida juda katta muammo bo‘lgan moddiy dunyo bilan ma‘naviy dunyoni kelishtirish masalasi dolzarb bo‘ldi.

Islom dini ulamolari zo‘r berib, Qur‘on va hadislardagi so‘zlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishga undashayotgan bir vaqtda bu kurash maydoniga Forobiy va Ibn Sino

kabi allomalar kirib keldilarki, ular falsafani din bilan muvofiqlashtirdilar, falsafaning din uchun foydali ekanligini amalda isbotlab berdilar. Bu jarayonni quyidagicha izohlash mumkin. Forobiydan oldin falsafa (yunon ilm-fani yutuqlari) bilan shug'ullangan musulmon olimlari bor edilar, albatta. Biroq Forobiyning qilgan xizmati shunda ko'rinadiki, u Xudoni, payg'ambarni, vahiyini va muqaddas kitoblarni e'zozlagan holda insoniyat o'zining aqli yordamida erishgan yutuqlarni ham ilohiy kalom va fayz bilan omuxtalashtirdi. "Forobiy fikriga ko'ra, falsafa haqiqatga erishish uchun maqsad hisoblanadi. Shuningdek, din ham payg'ambarlar vositasida Xudo tomonidan tushirilgan haqiqat hisoblanadi. Ammo bir haqiqat boshqa bir haqiqatga qarama-qarshi kelib qoladi, deb o'ylamaslik kerak"[3, 31-B].

Forobiy inson olamni bilishga intilishi kerak va buning uchun sharoitlar mujassamligini ta'kidlagan. Mutafakkirning asarlarini mutolaa qilgan ba'zi faylasuflar Forobiyni islom diniga zid fikrlar bildirgan deyishadi. Bizning nazdimizda ular "Ikkinchi muallim"ning ontologik va teologik qarashlarini to'liq anglashmagan. "Muallimi soniy" ikki dunyo saodati haqida fikr bildirgan. Unga ko'ra, bu dunyo deb o'zga dunyodan va narigi dunyo deb bu dunyodan voz kechishni yoqlamagan.

"Ammo Forobiy "Din falsafaning misollaridir" degan vaqtda qayd etib o'tgan ediki, payg'ambar xalq tilida so'zlashga majbur, chunki omma daliliy hukmlarni tushunmaganligi sababli daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan o'zga chora yo'q, aks holda payg'ambar ham faylasufdir, deb hisoblagan" [4, 116-B].

Olimning ilmiy merosida u payg'ambar va faylasufni taqqoslaganligini ko'rish mumkin. Forobiy faylasufning nutqi murakkab bo'ladi va u bilimga mehnati bilan erishadi deb hisoblagan. Payg'ambarning nutqi omma tushunadigan sodda bo'lishi va bilim to'g'ridan to'g'ri Xudo tomonidan berilishini ta'kidlagan.

Payg'ambar odamlar orasidan tanlab olinadi. Negaki, u vahiy orqali kelgan ilohiy kalomni odamlarga tushunarli tarzda yetkazib beradi. Aynan mana shu jihatdan olganda, payg'ambar ham aslida faylasuf bo'lib chiqadi. Agar u faylasuf bo'lmaganida, u vahiyda keltirilgan timsollarni to'lig'icha ilg'ay olmagan bo'lardi. Payg'ambarning mas'uliyatli vazifasi bu haqiqatni odamlarga yetkazib, u haqiqatni barchaga baravar anglatishi zarur bo'lgan.

Faylasuflar esa o'zlariga hech qanday vahiy kelmagan bo'lishiga qaramay, faol aql yordamida asl haqiqatlarni anglab oladilar. Chunki ular butun insoniyatning bilimdon kishilari tomonidan to'plangan ilm xazinasiga egalik qiladilar. Shu ma'noda Forobiy haqiqatga ratsional aql yordamidagina erishish mumkin, deya ta'kidlaydi. Mana shu o'rinda Forobiyning din va falsafani kelishtirish tamoyiliga guvoh bo'lish mumkin. Ya'ni falsafa yordamida anglash, bu faol aql vositasida amalga oshsa, dindagi bu anglash – faol aql bu "Jabroil" dir. Boshqacha qilib aytganda, vahiy farishtasi falsafiy atamashunoslikda faol aql sifatida belgilanadigan universal haqiqat hisoblanadi. Buni boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Forobiy borliqni zaruriy va imkoniyga ajratadi. Shunday qilib, dinning ikki asosiy tamoyilini, ya'ni ibtido va intiho (narigi dunyo) tamoyillarini tushunish mumkin [5, 32-B].

Forobiy din va falsafa mavzusiga alohida to'xtalib, quyidagilarni bayon qiladi: "Ezgu din bilan belgilangan mezonlar haqiqiydir yohud haqiqatga o'xshash. Umuman olganda, haqiqat – bu insonning tug'ma iste'dod yoki olingan bilimlari tufayli ishongan narsasidir". Haqiqat bolalikdan hayotimiz mobaynida ongimizga mustahkam o'rnashib boradigan qarashlar tizimi. Har bir inson o'z ongidagi qarashlarining darajasiga nisbatan haqiqatni anglab yetadi yoki o'z ongidagi mezonlarga muvofiq o'lchaydi. Umuman olganda, Forobiyda haqiqatga yetishish masalasi eng dolzarb masala sifatida qaraladi. Aynan shu munosabat yuzasidan u din va falsafani haqiqatga yetishishning turli usullari tarzida ko'rgan. U o'z fikrini davom ettirgan holda ezgu dinni falsafaga o'xshash, deya ta'kidlaydi. Shu o'rinda Forobiy ezgu din borasida quyidagilarni aytadi: "Ezgu dinning qilmish, harakat va qarashlari vahiy bilan belgilanadi. Bu uslublardan biri yoki ikkalasi bilan birgalikda amalga oshadi. Ulardan biri yuborilgan vahiy. Ikkinchisi, hukmdor Allohdan olgan vahiy orqali ega bo'lgan kuch yordamida qilmish va harakatlarni belgilab beradi, bu vahiy hukmdorga ezgu qarash va harakatlarni aniqlash uchun yo'lni ko'rsatadi..."

Na mohiyati jihatidan, na aqidalari jihatidan insonni ishontira ololmagan ixtiyoriy din adashgan, xato din deb hisoblanadi... Dinning aksariyat qismi falsafaga taalluqli masalalarni

muhokamaga qo'yadi. Shu tufayli falsafa va din yagona tarkibni tashkil etadi. Din tavsiya etgan aqidalarga odamlar tabiiy holatdan yoki dinga asoslanib rioya qiladilar, ya'ni buning o'zi ham falsafadir [6].

Din va falsafadagi kesishuvchi umumiy mavzular: haqiqat, axloq, inson, jamiyat, yaxshilik va yomonlik, borliq, bilish kabi mavzular insoniyatni qiziqitirib kelgan va har bir mintaqa faylasuflarida bu dolzarb masalardan hisoblanadi.

Umuman olganda, haqiqat – bu insonning tug'ma iste'dod yoki olingan bilimlari tufayli ishongan narsasidir... ezgu dinga kirgan hukmdorlikni amalga oshirish falsafa ixtiyoridadir... Ezgu dinning mezonlarini yanada ezgularoq bo'lgan narsa bilan aniqlash va to'g'irlash mumkin emas, chunki ezgu din o'z ichiga barcha ezgu qarashlarni qamrab oladi. Kim bunday o'ylasa – u qonun chiqaruvchi va fiqhxning bilimdonidir"[6]. Biroq din har qancha ezgu va to'g'ri bo'lishiga qaramasdan falsafadan keyin vujudga kelgan hisoblanadi. Bunga Forobiy ishonchli dalillar yordamida misollarni keltiradi. "Ishonchli falsafa davri isbotlash uslubi - apodeyktikaning bu davrdan oldingi dialektik, sofistlik, shubhali yoki - xuddi uning o'zi bo'lgan - yolg'on falsafa davrini tushuntirish zarurati tug'ilgan paytda barcha narsalarni uning yordamida aytish mumkin bo'lgan bosqichga yetgan davrda boshlandi. Din insoniyatning aqlini egallagan bo'lsada, vaqt hisobida falsafadan keyin turadi. Bir so'z bilan aytganda, din vakillari u (falsafa)ning yordamida xalqni o'qitayotib, falsafaga tegishli usullarda tadqiqot olib boriladigan aqliy va amaliy narsalarni qidirganlar, bular quyidagilardir: ishontirish yoki tasavvur qilish yoki bo'lmasa ularning birgalikda har ikkalasidir"[7].

Ba'zi davrda falsafa va din bir-birini to'ldirib, uyg'unlashgan bo'lsa, boshqa davrda falsafani noto'g'ri sharhlash oqibatida unga nisbatan nafrat kuchaygan. Aslida ikkalasi ham haqiqat tarafdorlaridir.

Islom falsafasida taqdir masalasi dolzarb va bahs-munozarali mavzu sifatida e'tirof qilinadi. Taqdir hukmi hech kimga to'liq anglashga berilmagan, uning asrori Yaratuvchining o'zidadir. Shunga qaramasdan ulamolar taqdir xususida fikr yuritib uni "Mubran taqdir" va "Muallaq taqdir" kabi tushunchalarga tasniflashgan. Mubran taqdir – bu keskin taqdirdir, ya'ni inson umriga oid barcha narsa, voqea-hodisalar avvaldan belgilangan, qancha umr ko'rishi, boy yo boy bo'lmasligi kabilar. Muallaq taqdirda esa, shartli ravish aks ettiriladi. Masalan, agar, inson o'zgalarning baxtli-saodatli bo'lishiga ko'makchi bo'lsa, u savob topadi va o'zi ham baxtli bo'ladi qabilida tushuntirilgan.

Demak, taqdir hukmi haqida ham inson fikr yuritgan va imkon qadar har qanday vaziyatda ham insonlarni xayr amallarni bajarishga da'vat etib, fozillikka motivatsiya berishga undanilgan holatlarni uchratish mumkin. Antik davr ta'limotlarini chuqur o'rganib, mantiq ilmini yanada rivojlantirib, masalalarga ratsional yondashish natijasida apodiktik bilimlarni shakllantirgan faylasuflar ham ilohiyot masalalari oldida ojiz bo'lib qolardilar.

A.A.Ignotenkoning fikricha, biz Forobiyni biron-bir musulmon jamoasiga mansub yo mansub emasligi haqida ayta olmaymiz, ammo uning musulmon bo'lganligiga hech kim shubha qilmaydi. A.Zohidovning "Turkistonda o'rta asr arab-musulmon madaniyati" nomli kitobida Forobiyni shia bo'lganligi ta'kidlangan. Asosiy masala asli boshqa, uning tizimi pragmatik islom asoslariga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi? Aynan shu savolga javob berish uchun Forobiyning falsafiy konsepsiyasining qaysi nuqtai nazardan o'rganish mumkinligini avvalam bor aniqlab olish kerak.

A.A.Ignotenko Forobiyning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasini olimning diniy qarashlardan ustun deb hisoblagan. Bunda u Forobiyning o'lgandan keyingi jazolash va taqdirlash haqidagi masalasini ham ijtimoiy-siyosiy konsepsiya sifatida ko'radi. A.A.Ignotenkoning fikriga quyidagicha raddiya keltiramiz, Abu Nasr Forobiy o'sha davr an'analari ko'ra o'z asarlarining boshida kalomdan foydalangan, Allohni madh etgan, ko'plab asarlarida diniy kategoriyalarni qo'llagan, Aflotun va Arastuning qarashlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, islom bilan ziynatlab, sharhlaganligi uchun ham olimlar uni "Islom olami falsafasining asoschisi" unvoniga sazovor qilishgan.

"Birinchi mohiyat" tushunchasi Forobiyga xos termin. "Birinchi mohiyat" bu mutlaq mukammal bo'lgan, mavjud bo'lgan, abadiy va doimiy borliqdir. U o'zining mavjudlik sababiga ega emas va bunday sababga muhtoj ham emas. Unga nisbatan tashqaridan nimanidir borligi haqida gapirish noto'g'ridir, chunki u nomoddiydir, shaklga ega emas va fazoda ma'lum bir holatda, ma'lum bir joyni egallagan deb hisoblaydi.

“Birinci mohiyat” barcha narsalarning sababchisi hisoblanadi lekin, uning sababchisining mohiyati yo‘q. Anglaganimizdek, “Birinci mohiyat” bu Alloh. “Birinci sabab” yo “Birinci mohiyat” o‘zini va yaratgan barcha narsalarini biladi. U yaratgan dunyoni tashkil qiluvchi narsalarning barchasi o‘zining mukammalligiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Eng nomukammallari birlamchi umummiy materiyaga ega bo‘lsa, ularga nisbatan eng mukammali esa inson hisoblanadi. Birlamchi mohiyat o‘z-o‘zini va ikkilamchi sabablarning har birini hamda ularning quyida joylashgan har bir narsani biladi. Ikkilamchi sabablar na o‘zlarini biladilar na boshqa sabablarni lek, boshqalarga nisbatan eng mukammal bo‘lgan inson o‘zini, boshqa sabablarni va Yaratuvchisini bilishga intiladi. Shu tariqa u “Birinci mohiyat”ni va U yaratgan ashyolarni bilib yanada mukammallashib boradi.

Forobiy “Fuqaroliq siyosati” va “Fozil shahar aholisining qarashlari haqida kitob”ida hammaning hayoti azaliy va abadiy, mutlaq Komil va Qodir Vujud bilan bog‘liqligini ta’kidlagan.

“Ikkinchi muallim” shaharni ikki qismga ajratadi: fozil va johil. Mukammal jamiyat, ya’ni fozil jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida mutafakkir odamlarni e’tiqod qilish ob’ekti va irqiga qarab emas, balki bilimi, aqliy qobiliyati, ilm-fanga qiziqishiga qarab turli guruhlariga bo‘ladi. Forobiyning fikricha, din erkin bo‘lishi kerak va u inson kamoloti va ma’rifatiga xizmat qilishi lozim deb hisoblagan. Olim ko‘plab mamlakatlarda bo‘lish jarayonida, turli din vakillarini ko‘rgan, ulardan saboq olgan. U Qur’oni Karimga katta hurmat bilan qaragan va islom dinini eng mukammal din sifatida anglagan. Dinni kishilarni xulq va odobga o‘rgatuvchi vosita deb bilgan. Shuningdek, olim g‘arazli maqsadda jaholatga undovchi nafsga berilganlarning fikriga qo‘shilmagan.

Forobiy o‘z asarlarining ma’lum bir sahifalarida alohida diniy tushunchalarga murojaat qiladi. U asarlarini keng ommaga tushunarli bo‘lishi uchun sodda shaklda bayon qilgan deb aytishimiz mumkin.

Olim nihoyatda kamtarona hayot kechirgan bo‘lishiga qaramay, u odamlarni: “...shaxsiy komillikning bu yo‘li odam dunyo ishlarini tashlab, ulardan butunlay voz kechishini taqozo etmaydi. Uning fikricha, o‘zlarining yerdagi dunyolarida odamlar imkon qadar jamiyatda to‘g‘ri hayot tarzini olib borishlari, aql, yaxshilik, adolat va boshqa islom hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida Fozil shahar bunyod etishlari kerak”[8] -deydi.

“Falsafa – kiborlar uchun baxt-saodatga erishish yo‘li, din esa, uning tasavvurotdagi monandi sifatida keng jamoatchilikni baxt-saodatga erishtirish uchun tarbiyalash va unga bilim berish vositasidir. Zotan, kiborlar va oddiy odamlar orasidagi tafovut asosida nazariy bilimlarni egallashdagi farqlanish tamoyili yotadi”[9, 77-78-B]. Forobiyning ta’kidlashicha, “keng jamoatchilik – shunday odamlarki, ularning nazariy bilimlari keng tarqalgan fikr bilan tasdiqlanadigan chegaraga ega. Kiborlar – bu shunday odamlarki, ular nazariy bilimlarining birortasida ham keng tarqalgan fikr bo‘yicha zarur hisoblangan narsa bilan cheklanib qolmaydilar”[10].

Forobiy bir dinni boshqa xalqqa o‘tishini (bu yerda islom dini nazarda tutilmoqda) o‘rganib, quyidagilarni aytadi. “Dini bor xalqning dini yo‘q boshqa xalqqa o‘tishiga kelsak, bu holda boshqa xalqdan qabul qilingan din qayta shakllanadi, ko‘payadi yoki kamayadi, u boshqa xalqni ham qoniqtirishi, u orqali tarbiyalash, o‘qitish, boshqarish mumkin bo‘lishi uchun unga turli o‘zgartirishlar kiritiladi. Unda balki ularda din dialektika va sofistikan oldin paydo bo‘lgan bo‘lishi va ularning qobiliyatlariga ko‘ra, paydo bo‘lmagan va oldinroq vujudga kelgan boshqa xalqdan o‘tgan falsafa ular qabul qilgan dindan so‘ng paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Mavjud din falsafaga qarshi chiqmasligiga va dindorlar unga qarshi borib, uni tashlab yubormasliklariga, faylasuflar esa dindagi ramzlar falsafaga tegishli ekanligini bilmagan holda u dinga qarshi chiqmasliklariga kafolat yo‘q. Faylasuflar dindagi ramzlar o‘zlariniki ekanligini bilganlaridan so‘ng esa, qarshilik ko‘rsatmagan bo‘lar edilar, biroq din odamlari u falsafaga qarshi chiqqan bo‘lardilar. Falsafada ham, uning odamlarida ham din va din odamlari ustidan hukmronlik yo‘q, lekin o‘zib olish g‘oyasi bor va bu g‘oya odamlarini o‘zib oluvchilar, deb atashadi. Din falsafadan ozgina yordam oladi, lekin falsafa va uning odamlarining din va uning odamlaridan katta zarar ko‘rmasligiga kafolat yo‘q. Shuning uchun ham falsafa odamlari din odamlariga qarshi borishga majbur bo‘layotgandirlar. Shu yo‘l bilan ular dinning o‘ziga qarshi chiqishdan qutulishadi, lekin ularning dindagi ramzlarni tushuntirishga harakat qilishdagi fikrlariga qarshi chiqishadi”[11, 381-382-B].

Forobiy kalomni aniqlashtirib, o'z zamonasi kishilarini va o'zidan keyingilarni asl haqiqatdan boxabar qilishga urindi. "Kalom ilmi va musulmon huquqi keyinroq paydo bo'ldi va ularning (din va falsafa) izidan bordi. Din qadimgi shubhali yoki yolg'on falsafa izidan borarkan, kalom va musulmon huquqi ham uning ketidan boraveradi. Kalom ilmi o'sha ramz va tasavvurlarni ishonchli haqiqat deb qabul qildi va xulosa chiqarish orqali isbot qilishga urindi.

Ma'lumki, kalom ilmi va musulmon huquqi dinga qaraganda keyinroq paydo bo'lgan, din esa - falsafadan keyinroq, dialektik falsafa va sofistika apodiktik falsafadan oldin bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, qurollarning qurollarda ishlatilishi uchun qurolning vaqt hisobidan oldin yasalishi kabi falsafa ham dindan oldin bo'lgan. Dialektika va sofistika daraxt mevasining daraxtdan oldin oziqlanishi kabi yoki daraxtning gullashi meva tugishidan oldin kelishi kabi falsafadan oldin bo'lgan. Va din ham kalom va musulmon huquqiga nisbatan boshqaruvchi tomonidan qo'yilgan rais xizmatkordan oldin bo'lgani kabi va qurolni amalda ishlatish uchun oldin qurol yasalishi kabi oldinroq bo'lgan"[11, 381-382-B].

Yuqoridagilar asosida Forobiyning fikrini quyidagicha izohlash mumkin, inson haqiqatni izlash chog'ida kalom ilmi yoki musulmon huquqi bilan cheklanib qolmasdan, Arastu ta'kidlagan falsafaning bosqichlari – she'riyat, musiqa, sofistika, ritorika, apodiktikadan ham foydalanish kerakligini nazarda tutgan. Forobiy din va falsafa o'rtasiga katta to'siq o'rnatmaydi. U muammoli dunyoning barcha masalalariga yechim bo'lib xizmat qiladigan markaz sifatida insonni ko'radi. Zero, inson bo'lmaganida edi, falsafa ham, din ham, hech qanday vahiy ham bo'lmasdi. Inson bor ekan, ular bor. Forobiydinning nazariy asoslarini tashkil etuvchi ustqurma sifatida nazariy falsafani e'tirof etgan. Olim nazariy falsafani haqiqatga ongli ravishda erishish sohasi deb bilgan.

"Ikkinchi muallim" falsafani nazariy va amaliyga bo'ladi. Uningcha, tafakkuriy nazariy falsafa – bu inson idrok etib, to'liq amalga oshira olmagan falsafa bo'lsa, amaliy falsafa – bu inson idrok etib, amalga oshira oladigan falsafadir (din bilan ham xuddi shundaydir).

Dinning amaliy qismi to'liqligicha amaliy falsafaga kiradi. Dinning nazariy qarashlari nazariy falsafada o'z isbotlarini topadi va din tomonidan dalilsiz qabul qilingandir. Demak, din tashkil topgan ikki qism falsafadan olingan.

Inson bilishi mumkin bo'lgan bilimlar nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi. Amaliy bilimlar insonning bevosita faoliyati bilan bog'liq. Nazariy bilimlar esa murakkabroq bo'lib, uni har qanday kishi ham anglab yetavermaydi. Forobiy *علاقه بين الفلسفة و الملة* (Falsafaning dinga munosabati) asarida: "Nazariy ilm Allohning vahiyi yuborilgan insonga yetishi va bu insonda vahiydan kuch paydo bo'lganligini ko'rsatib beradi"-deydi. Agar bizda nazariy bilim bo'lmasa, vahiy va u bilan bog'liq holatni anglab yetolmaymiz. Bundan kelib chiqadiki, Alloh taolo payg'ambarlariga Jabroil farishta orqali vahiy yuborgan, deb ta'kidlagani bilan insonda to'liq ishonch shakllanmaydi. Bu to'liq ishonch shakllanishi uchun insonda nazariy bilim kuchli bo'lishi kerak. Shu bilan birga, nazariy qarashlar bo'lmaganida, payg'ambar insonlarga o'zining vahiy orqali qabul qilib olgan so'zlarini to'lig'icha anglata olmagan bo'lardi. Zero, Qur'ondagi barcha oyatlar faqat amaliy faoliyat bilan bog'liq emasda! Hayotda shunday masalalar borki, ularni inson harchand amaliy harakat bilan mashg'ul bo'lmasin, zarracha ham anglab ololmaydi. Chunonchi, insonning mohiyati, borliqning vujudga kelishi, koinot va nihoyat, Xudoning zoti va mavjudligi kabi... birinchilardan keyingilarning paydo bo'lishi, ularning nisbati, tuzilmasi va o'zaro aloqasini tushuntirib beradi"[11, 319-320-B].

Forobiy falsafada nazariy bilimning ustunlik qilishiga zarurat borligini ta'kidladi.

Mana shu ma'noda dindagi nazariy qarashlar falsafadagi nazariy qarashlarning samaralaridir. Ammo Forobiy dinni inkor qilmadi, balki yuqorida ta'kidlaganimizdek, falsafa xos insonlar uchun, din esa keng jamoatchilik uchun vosita bo'ldi. Ular orasidagi farq faqat shunda namoyon bo'ladiki, arab-musulmon donishmandlarining falsafasida islom e'tiqod qiluvchilarning bilimlari orqali, din esa xuddi shu haqiqat va vahiylarni e'tiqod qiluvchilarning chalasavod guruhlar uchun tushunarli tasvirlari orqali Alloh, dunyo, inson va ular o'rtasidagi munosabatlarni talqin qilgan[8].

Forobiy olamni bilishda odamning ijtimoiy kelib chiqishi, ta'lim-tarbiyaning o'rni hamda uni qurshab turgan shaxslarga bog'liq deb hisoblagan

Inson irodasiga bog'liq bo'lgan tushunchalarni ijtimoiy fanlar o'rganadi, inson irodasiga bog'liq bo'lmagan tushunchalarni tabiat haqidagi fan o'rganadi"[12].

Inson bu dunyoga kelib, u o'ziga nima uchun, qachondan, nega ... kabi savollarni berib, haqiqatni izlaydi. Saodat yo'lidagi har qanday harakat yaxshilikdir. Har bir individ o'zining individual jihatlari bilan ajralib turishi ma'lum. Har kim o'z oldiga maqsad qo'yadi hamda maqsad va ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Inson e'tiqod egasi, u nimagadir e'tiqod qilmasdan yo'lashmasdan faoliyat yurita olmaydi. Inson haqiqatni izlaydi, baxt-saodatli yashashga harakat qiladi, ammo baxt tushunchasi va mohiyatini har kim har xil tushunadi. Forobiy fikriga ko'ra, inson baxt-saodatga erishmogi uchun, eng avvalo, baxt haqida bilimga ega bo'lmog'i, so'ngra baxtga erishish yo'llari, vositalarini bilmog'i kerak, deydi.

Forobiy Aflotun va Arastularning davlat, jamiyat, borliq kabi qarashlarini islom dini bilan uyg'unlashtirdi va islom olami falsafasining asoschisi bo'lib maydonga chiqdi. Forobiy Aflotun va Arastuni hamda din bilan falsafani o'zaro murosaga keltirishga harakat qildi. Bu nazariya esa o'rta asrlarda Sharq va G'arb faylasuflari orasida keng tarqalib, muvaffaqiyatga olib keldi. Ammo bu murosa zaruriyatga aylanmadi. Demak, bu nazariyani murakkab va lo'nda bayon qilgan Ibn Sino tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangan bo'lsa-da, G'azzoliy ularga raddiya yozdi. Nasroniy olimlarining bu nazariyaga qarshiligiga qaramasdan, u har doim ularning hurmatiga sazovar bo'ldi. Tarixdan ma'lumki, falsafani tushunish va tushuntirish turli davrlarda turlicha targ'ib qilingan. Falsafani din bilan kelishtirish esa, o'ta murakkab vazifa hisoblangan va hozir ham shunday. Abu Nasr Forobiy esa bu ikki murakkablikni o'z zimmasiga olib, insoniyatga anglatish uchun ulkan xizmatlarni amalga oshirganligini tahlilini ushbu paragrafda atroflicha bayon qilishga harakat qildik.

Abu Nasr Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ygan. Falsafiy maktablar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmadi. Uningcha, haqiqiy falsafa bilan haq din, ya'ni islom dini birdir. U falsafani hamma ham fahmlamasligini anglagan. Forobiy falsafa faqat xos (ziyoli)larga tegishlilikini, dinning tili esa ham xoslarga ham avomga tushunarlilikini asarlarida ifodalagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqolada biz Forobiy ratsional borliqda insonning o'rni, Sababi Avvalning zarurati va u yaratgan javharlarning ba'zisining mohiyatini inson aqli tufayli anglash imkoniga egaligi haqidagi fikrlari tahlil qilingan. "Ikkinchi muallim" tomonidan borliqda inson o'rni va u yaratilgan mavjudotlar orasida yetakchiligi asoslab sharhlangan. Hayot hikmatlarga boy bo'lsa-da, hamma ham bu hikmatlarni qomusiy olimlar kabi ko'rmaydi va anglamaydi.

Foydalanilgan manbalar ro'yhati:

O'zbek tilida:

М.Қодиров. Марказий Осие, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. – Т.:ТошДШИ, 2010.

Ўрта Осие халқлари хурфикрлиги тарихидан., Ҳайруллаев М. М. таҳрири остида Т., Фан, 1990.

Rus tilida:

Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты. //Книга букв.–Алма Ата: Наука, 1987.

Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты. //Отношение философии к религии.– Алма Ата: Наука, 1987.

Аль-Фараби. Астана. Елорда. 2005.

Наследие аль-Фараби и мировая культура (материалы международного конгресса), Алматы, 2001, Динани Г.И. (Эрон).

Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата., Наука, 1973.

Arab tilida:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining nodir qo'lyozmalar fondidagi P №2385 – LXII raqamli كتاب في مبادئ أهل المدينة الفاضلة qo'lyozmasi.

Fors tilida:

Ризо Доварий Ардаконий. Форобий ислом фалсафасининг асосчиси. Илмий-текшириш ва маданий тадқиқотлар муассасаси. Техрон, 1998.
دهخدا. لغت نامه . تهران چاپ دانشگاه . ۱۳۲۵ هـ . رشیدی خو

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000